


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ishga joylashtirishda yordam berishni soʻrab 52 704 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (4 838 kishi), Qamashi (4 544 kishi), Qarshi shahrida (4 494 kishi), Koson (4 060 kishi), Kitob (3 651 kishi), Dexqonobod (3 426 kishi), Gʻuzor (3 352 kishi), Shahrisabz (3 197 kishi), Chiroqchi (3 154 kishi), Yakkabogʻ (3 014 kishi), Kasbi (2 986 kishi) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga murojaat qilgan fuqarolardan 32 996 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu koʻrsatkich, Qarshi shahrida (3 081 kishi), Koson tumanida (2 854 kishi), Kitob (2 663 kishi), Gʻuzor (2 187 kishi), Qarshi (2 130 kishi), Chiroqchi (2 110 kishi), Qamashi (2 101 kishi) tumanlarida yuqori darajada boʻldi. Oʻtgan davr mobaynida bandlikka koʻmaklashuvchi markazlarida roʻyxatga olingan fuqarolardan 110 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka koʻmaklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**
(2025- yil 1- oktabr holatiga, kishi)

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2025- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2025- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2025- yil yanvar-sentabr</i>
Viloyat bo‘yicha:	63 710	52 704	1 290	110	1 290	110
shaharlar:						
Qarshi	5 851	4 494	34	3	34	3
Shahrisabz	2 727	2 622	115	9	115	9
tumanlar:						
G‘uzor	4 716	3 352	222	32	222	32
Dehqonobod	4 036	3 426	43	-	43	-
Qamashi	4 281	4 544	46	2	46	2
Qarshi	5 535	4 838	42	6	42	6
Koson	5 146	4 060	59	24	59	24
Kitob	4 395	3 651	120	3	120	3
Mirishkor	2 589	2 425	97	-	97	-
Muborak	2 456	1 813	36	5	36	5
Nishon	3 347	2 879	30	4	30	4
Kasbi	3 994	2 986	90	2	90	2
Ko‘kdala	3 227	2 249	42	5	42	5
Chiroqchi	3 831	3 154	62	-	62	-
Shahrisabz	4 017	3 197	161	4	161	4
Yakkabog‘	3 562	3 014	91	11	91	11



Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qamashi, Dehqonobod, Qarshi shahri, Koson, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2025- yil yanvar-sentabr</i>
Viloyat bo'yicha:	33 622	32 996
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2 803	3 081
Shahrisabz	1 511	1 727
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2 536	2 187
Dehqonobod	1 832	1 946
Qamashi	1 948	2 101
Qarshi	2 062	2 130
Koson	3 264	2 854
Kitob	2 780	2 663
Mirishkor	1 354	1 791
Muborak	1 440	1 234
Nishon	1 397	1 957
Kasbi	2 249	1 652
Ko'kdala	1 794	1 669
Chiroqchi	2 104	2 110
Shahrisabz	2 358	1 915
Yakkabog'	2 190	1 979

¹⁾ *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 270,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nishon tumanida 6 317,1 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 147,9 %), Qarshi shahrida 5 864,3 ming so‘m (137,3 %), Muborak tumanida 4 739,3 ming so‘m (110,9 %) va G‘uzor tumanida 4 263,3 ming so‘m (99,8 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	244 214	9 267,1	4 270,8
shu jumladan:			
Sanoat	26 065	1 713,9	7 306,1
Qurilish	7 192	277,3	4 283,8
Savdo	2 021	64,7	3 557,0
Tashish va saqlash	5 961	397,2	7 404,6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	224	5,3	2 607,9
Axborot va aloqa	1 171	102,6	9 734,8
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 863	212,5	12 674,4
Ta‘lim	115 818	3 586,8	3 441,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	52 934	1 390,0	2 917,7
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 257	112,6	5 541,0
Boshqa faoliyat turlari	28 709	1 404,2	5 434,6

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 270,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga o'sgan .

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 12 674,4 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 9 734,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 7 404,6 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 173,3 % ni tashkil qildi), Sanoat sohasida 7 306,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 171,0 % ni tashkil qildi), hamda San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 5 541,0 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,7 % ni tashkil qildi) ekanligi kuzatildi.




Qashqadaryo iloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	3 643,1	4 270,8	117,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	5 070,4	5 864,3	115,6
Shahrisabz sh.	3 355,9	4 162,8	124,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 953,7	4 263,3	107,8
Dehqonobod	3 419,6	4 236,2	123,8
Qamashi	2 653,5	3 047,4	114,8
Qarshi	2 887,6	3 311,5	114,6
Koson	2 913,4	3 222,6	110,6
Kitob	2 821,9	3 532,6	125,1
Mirishkor	2 758,5	3 052,4	110,6
Muborak	4 564,9	4 739,3	103,8
Nishon	4 538,4	6 317,1	139,2
Kasbi	2 856,6	3 580,5	125,3
Ko'kdala	2 869,2	3 294,8	114,8
Chiroqchi	2 811,8	3 490,9	124,1
Shahrisabz	2 738,2	3 274,0	119,5
Yakkabog'	2 634,4	3 110,6	118,0


Ish haqi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 910 ta muassasada 115 818 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,4 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 3 586,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 441,0 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sgan.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 48 ta korxonada 26 065 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,6 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 713,9 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,5 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 306,1 ming so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 24,3 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 19 074,3 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 barobarga yuqori), Dehqonobod tumanida 8 616,8 ming so‘mni (117,9 % ni tashkil qildi), G‘uzor tumanida 8 159,3 ming so‘mni (111,6 % ni tashkil qildi), Muborak tumanida 7 455,0 ming so‘mni (102,0 % ni tashkil qildi), tashkil etgan bo‘lsa, Qamashi tumanida 2 271,2 ming so‘mni (31,0 foizini), Mirishkor tumanida 2 697,0 ming so‘mni (36,9 foizini) hamda Ko‘kdala tumanida 3 147,4 ming so‘mni (43,0 foizini) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 332 ta muassasada 52 934 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,6 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 390,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,0 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 917,7 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o'sgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 461,6 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,6 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Kasbi tumanida 2 146,5 ming so'mni (73,5 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 56 ta muassasada 2 257 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 112,6 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 541,0 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 21,9 % ga o'sgan.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 8 084,0 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,8 %), Qarshi shahrida 6 617,0 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,4 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)

Foiz

